SHAXS KOMOLOTINI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQA TA’LIMI VA TARBIYASINING IMKONIYATLARI

Hasanova Navbahor Xamraqulovna,
JDPI katta o‘qituvchi.
Gulzoda Bekbo‘taeva,
Jizzax shaxar 1- sonli BMSM direktori.

Annotatsiya: Maqolada ta’lim muassasalarida musiqa ta’limi orqali yoshlarning estetik tarbiyasini rivojlantirishda musiqaning o‘rniga oid ko‘rsatmalar berilgan. Shuningdek, bugungi kunda musiqa ta’limi jarayonida o‘quvchilarda musiqa san’atiga nisbatan qiziqish va havaslarining ortib borishi va bu san’atning yoshlar ma’naviy kamolotidagi ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Musiqa madaniyati, estetik tarbiya, milliy madaniyat, ta’lim muassasalari, milliy qadriyatlar.

Respublikamizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar barcha sohalardagi kabi bo‘lajak o‘qituvchilarning zimmasiga ham katta vazifalar yuklaydi. Hozirgi kunda, musiqa madaniyati fani birdaniga shakllangan fan emas, balki murakkab taraqiyot yo‘lini bosib o‘tgan fan sifatida e’tirof etilmoqda. Bu ta’lim mazmunida har bir xududning san’ati va musiqa madaniyati, urf-odatlari marosimlari, badiiy an’analarida o‘z ifodasini topgan. Shuni alohida takidlash lozimki, hayotni va atrofdagi guzallikni bilmay turib to‘laqonli badiiy ijodni amalga oshirib bo‘lmaydi.

Musiqa san’ati estetik did, xissiyot, idrokning bitmas tuganmas manbaidir. Inson yuragini va aqlini zabt etuvchi maftunkor dunyosidir. Inson doimo go‘zallikka intilishi va kundalik hayotida shu go‘zallik qoidalariga amal qilish kerak.

O‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, komil inson qilib tarbiyalashda estetik tarbiyaga alohida e’tibor berilishi juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan jarayondir. Ushbu masalani yechishda musiqa san’atining o‘rni beqiyosdir va estetik tarbiyaning eng asosiy omilidir.

Estetik tarbiya ancha keng ma’noga ega bo‘lib, shaxsni tabiat va jamiyatdagi go‘zalliklarni ideal nuqtai nazardan idrok etishga o‘rgatadi. Shuningdek, estetik

faoliyatga, voqelikni go‘zallik qonun-qoidalari asosida o‘zgartirishga qobiliyatli shaxsni tarbiyalashga yo‘naltiradi.

Estetik rivojlantirish – bu shaxsning estetik ongi, munosabatlari va estetik faoliyatining vujudga kelishi hamda takomillashuvidan iborat uzoq davom etadigan jarayondir. Estetik tarbiya shaxsning jamiyatda estetik madaniyatini egallab olishiga bog‘liq bo‘lib, turli yo‘llar va shakllar yordamida amalga oshiriladi.

Jamiyatning estetik madaniyati deganda insoniyat butun rivojlanishi tarixi jarayonida to‘plangan moddiy ma’naviy qadriyatlari majmui tushuniladi. O‘quvchi shaxsini estetik madaniyati uning jamiyat merosini faol, ijodiy o‘zlashtirishida xosil bo‘ladi. Shaxsning go‘zallik bilan o‘zaro munosabati, shuningdek, shaxsning yayrim sifatlarini o‘zaro ta’siri natijasida estetik madaniyatining asosiy tarkibiy qismlari bu estetik ong, idrok, hissiyot, ehtiyojlar, munosabatlar va estetik faoliyatlardir. Estetik ong, estetik idrok, bilim, mulohaza, baxs, estetik idealni qamrab oladi. Estetik ehtiyojlar va munosabatlar esa, eng avvalo shaxsning estetik qiziqishlari, badiiy didi, estetik xissiyotlarida ifodalanadi.

Estetik ong – ijtimoiy voqelik, tabiat san’at bilan bevosita muloqot jarayonida – nazariyalar, qarashlar, badiiy ta’lim-tarbiya natijasida shakllanadi. Estetik ongning asosini estetik idrok tashkil qiladi.

Estetik idrok – bu atrof voqelikdagi buyumlar, xodisalarning estetik mohiyatini butun tarkibiy qismlari bilan birgalikda aks ettirishdir, ya’ni idrok etilgan narsalarni shaxsda mavjud bo‘lgan xissiy va aqliy narsalarga qiyoslash jarayonidir. Estetik idrok go‘zallik bilan uchrashganda yuzaga keladi va aniq maqsadga qaratilganligi bilan tavsiflanadi.

Estetik mulohaza – shaxsning aniq bir estetik xodisaga munosabatini bildiruvchi aqliy harakatida ifodalanadi. Shaxsning estetik mulohazasi chuqurligi, takomillashganligi, murakkabligi, yuqori va pastligi bilan ajralib turadi. Estetik mulohaza darajasi shaxsning hulq-atvori va bilim saviyasiga, estetik tajribasiga bog‘liqdir.

Estetik ideal – bu shaxsning tabiat, jamiyat va san’atdagi maqsad tarzida idrok etadigan takomillashgan go‘zallik borasidagi bahosining aks etishidir.

Estetik did – shaxsda uning shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlarining qo‘shilishi natijasida xosil bo‘ladigan murakkab xodisadir. Estetik did estetik axborotlar oqimi, estetik va ahloqiy normalar yig‘indisi orqali shakllanadi va shaxsning buyum, xodisalarga estetik baho berishida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Estetik tuyg‘u – bu shaxsning buyum yoki hodisaga estetik baho berish munosabatini boshdan kechirishdir. Estetik tuyg‘u o‘quvchining mazkur buyumning shakli, rangi va mazmunini mushohada qilib xursand bo‘lishida yoki aksincha nafratlanishida ifodalanadi.

Umuman olganda estetik tarbiya vazifalarining to‘la-to‘kis bajarilishi o‘quvchilarda tashabbuskorlik, ijodkorlik, oldindan ko‘ra bilish, intiluvchanlik, orzu qila bilishlik kabi fazilatlarni shakllantiradi. Aqlan yetuk, jismonan sog‘, axloqona milliy ma’suliyat tuyg‘usini anglatadigan o‘quvchilarni tarbiyalab yetkazgan mamlakatgina mustaqil va barqaror rivojlana oladi. Milliy tarbiya umuminsoniy qadriyatlardan ajralgan holda rivojlana olmaydi. Shuning uchun o‘quvchilarni nafosat didlarini rivojlantirib, umuminsoniy qadriyatlarini qanchalik ko‘p o‘zlashtirgan bo‘lsalar, shunchalik milliy qadriyatlarga ega bo‘ladilar. Yuqorida qayd etilgan fikr mulohazalarni umumlashtirib shuni aytish kerakki, yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs qilib yetilishida musiqa madaniyati darslarida o‘tiladigan qo‘shiqlar, kuylar, musiqa tinglash jarayonida nota yozuvida bastakorlarimizni bizga yetkazib kelgan betakror na’munalari, musiqa san’atining imkoniyatlari juda kengligidan dalolat beradi.

Musiqa ta’lim jarayonida o‘quvchilarda musiqa san’atiga nisbatan qiziqish va havasning ortib borishi, musiqa mashg‘ulotlari asosida ularda: hissiyot, idrok tarbiyasini o‘sib borishi, qo‘shiqlarining xushohang kuylash, musiqasini ishtiyoq bilan tinglash, asarlarni tahlil qilish orqali musiqadagi xushsozlik, xushovozlik, ya’ni go‘zalikni sezish, uni baholash malakalari shakllana borishi alohida ahamiyatlidir. Shu ta’kidlash joizki, musiqiy ta’limning asosiy maqsadi o‘quvchi yoshlarimizni nafosat didlarini badiiy asarlar orqali shakllantirishdir.

Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya) bu o‘quvchilarni voqelikdagi, san’atdagi, tabiatdagi, kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi go‘zallikni idrok qilish hamda to‘g‘ri tushunishga o‘rgatish, ularning badiiy didini o‘stirish, ularda go‘zallikka muhabbat uyg‘otish va hayotiga go‘zallik olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir.

Nafosat tarbiyasi – eng avvalo har bir kishida badiiy xissiyot tuyg‘ularini, badiiy didni tarbiyalashdir. Bunday yuksak nafosatlilik aql zakovatdan xoli bo‘ladi, degan ma’noni tushunmaslik kerak. Shaxsning barkamol inson bo‘lib shakllanishida ikki tomon bir-birini to‘ldiradi.

Chinakam san’at asarida hissiyot chuqur g‘oyaviy aqliy mazmuni bilan idrok qilish birikib ketadi. Nafosat tarbiyasi aql bilan hissiyotni tarbiyalash, yanada aniqroq qilib aytganda, hissiyot vositasi bilan aqlni tarbiyalashdir. Bu ikki tomon bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Ilmiy dunyoqarashga asoslangan nafosat, did, his - tuyg‘ular o‘sib borishi jarayonida insonning o‘zi ham ma’naviy boyib, oliyjanob bo‘lib boradi, uning hayoti yanada sermazmun bo‘ladi, yashayotgan zamoniga nisbatan mehr-muhabbat ortib boradi. Bularning hammasi har bir insonda go‘zallikni xuniklikdan, jirkanchlikdan farq qila bilish qobiliyatini shakllantiradi, uni ya’nada rivojlantiradi.

Nafosat tarbiyasi barcha yoshdagi kishilarga bab-barobar zarur. Ammo butun tarbiya tizimida, amalda isbotlanganidek, nafosat tarbiyasini singdirishni insonning bolalik davridan boshlash nihoyatda muhim, bu davr inson hayotida fe’l atvor, ifodaning, did, go‘zallik tuyg‘usi va hayotiy tushunchaning paydo bo‘lishi va shakllanishi davridir.

Estetik, ya’ni go‘zallik tarbiyasini singdirishning ahamiyati katta. Bunday tarbiya, avvalo yoshlarni turmushdagi go‘zallik va xuniklikni tushunish, xis etishi orqali ma’lum bir kayfiyatni shakllantiradi, ularda go‘zallikdan zavqlanish, xunuk xatti-harakatlardan nafratlana olish qobiliyatini paydo qiladi, kishilarni ma’naviy fazilatli bo‘lishga yetaklaydi.

Inson go‘zal bo‘lishga, go‘zal ko‘rinishga harakat qiladi – bu qonuniy hol. Ammo uni amalga oshirish axloqiy fazilatga, ya’ni insonning go‘zalligi uning

ijodiy, yaratuvchilik faoliyati mazmuniga bog‘liqdir. Agar inson o‘zi sevgan faoliyat bilan band bo‘lar ekan, unda ichki ko‘tarinkilik, oliyjanoblik va ilhombaxsh tuyg‘u paydo bo‘ladi.

Insonning ichki va tashqi ma’naviy dunyosi, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi qanchalik go‘zal bo‘lmasin, agar undan jamiyatga foyda bo‘lmasa, uni nafosatli deb ayta olmaymiz. Zotan, haqiqiy go‘zallik har bir kishining ijtimoiy foydali faoliyati darajasi bilan o‘lchanadi.

Inson mehnati bilan yaratilgan barcha narsalar faqat moddiy jihatdan foydali bo‘libgina qolmasdan, balki zavq-shavq uyg‘otish manbai hamdir, chunki ular kishining bahri dilini ochadi, unga ma’naviy ozuqa beradi.

Xullas, estetik did, idrok, estetik qobiliyat, hissiyot madaniyati birdaniga paydo bo‘lmaydi, tabiatdan tayyor holda berilmaydi. Har qanday insoniy qobiliyat qatorida go‘zallik tuyg‘usini ham tarbiyalash, rivojlantirish, takomillashtirishga muhtojdir. Bularning hammasida inson go‘zalligi nomoyon bo‘ladi. Xalqimiz “yaxshi husningni yomon xulqing buzadi” deb bekorga aytmagan.

Bolalikda aql-farosat, axloqiy ko‘nikmalarni tarbiyalash bilan bir qatorda, ularda chiroyli, nafis, go‘zal narsalardan zavq ola bilishni, go‘zallikni dag‘allikdan, qo‘pollikdan tez ajrata olish qobiliyatini tarbiyalashimiz kerak. Dars jarayonida o‘quvchilarni tozalikka, tartiblilikka, go‘zallikni sevishga o‘rgatish kerak. Buning uchun avvalo sinfdagi barcha buyumlar did bilan tanlab, joylashtirilgan, toza, saramjon-sarishta bo‘lgani ma’qul. Chunki o‘quvchilarga ikki xil narsa ko‘proq ta’sir qiladi. Birinchisi o‘quvchining ko‘ziga tez-tez tashlanadigan buyumlar, odamlar o‘rtasidagi munosabat bo‘lsa, ikkinchisi o‘quvchining o‘ziga bevosita tegishli bo‘lgan narsalar – kiyim-kechak, idish-tovoqlar, kitoblar, o‘yinchoqlar, yozuv stoli va boshqalardir. Bola o‘z buyumlarini asrab, avaylab, toza-ozoda, saramjon-sarishta qilib yurishga o‘rgansa, u yoshi ulg‘aygan sayin go‘zallikning murakkab ko‘rinishlarini tabiatdagi uyg‘unlikni, san’atdagi go‘zallikni payqab olish uchun tayyorlana boradi.

“Musiqa madaniyati” darslarida nafosat tarbiyasi, texnika vositalaridan foydalanishi, did bilan chizilgan rasmlar, estetik badiiy asarlar va sahna o‘yinlari

orqali o‘quvchi ongiga singdirib boriladi. Shuningdek turli janrdagi badiiy asarlarni o‘rganish, so‘zlarni yodlash, jumladan, ertak, rivoyat, hikoyalarni o‘rganish orqali bola so‘z qudratidan zavqlanadi, hayajonlanadi, ta’sirlanadi. O‘zini sirli voqealar ichida yurgandek his etadi, butun vujudi quloqqa aylanadi, turli kechinma, kayfiyat, his-tuyg‘u qalbini qamrab oladi. So‘z qudrati uni sehrlab, butunlay o‘ziga jalb etadi, ergashtiradi. Musiqa ohangi yordamida idroki oshadi.

Nafosat tarbiyasi vositalaridan eng muhimi san’atdir. San’atning barcha tur va janrlari o‘ziga xos ta’sir kuchiga ega. Yoshi o‘sib borgan sayin, bolada san’atning u yoki bu turiga qiziqish almashib boradi. O‘quvchilarni havaskorlik to‘garaklariga jalb etish, intermediyalar ijro etish, sahnada rol bajarish, turli milliy o‘yinlar o‘ynash bular qalblarni go‘zallikka oshno etuvchi vositalar bo‘lib xizmat qiladi.

Musiqa madaniyati darslarida bola shaxsini komil inson darajasiga yetkazishda quyidagi tavsiyalarni belgilab olishga qaror qilib olsa bo‘ladi:

1. Musiqa tinglashda estetik hissiyot, go‘zallik, idrok tushunchaning izohlanganligi, musiqiy va musiqiy nazariy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirilsa;

2. Musiqa tinglash va uni tahlil qilishda o‘quvchilarining yoshiga ko‘ra hosil qiladigan qobiliyat va imkoniyatlarini inobatga olinsa;

3. Qo‘shiq kuylash va musiqa tinglash faoliyatida o‘quvchilarning nafosat tarbiyasini, idrok tuyg‘ularini tarbiyalashga asosiy e’tibor qaratilsa;

4. Musiqa tinglash va uni tahlil qilishda mashg‘ulotlarni pedagogik jihatdan to‘g‘ri rejalashtirish va tashkil qilinsa, bunda yangi-yangi uslublardan foydalanish ishlari yo‘lga qo‘yilsa musiqa san’atining barkamol avlodni tarbiyalashdagi imkoniyatlari yanada samarali bo‘ladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1.I.Karimov. “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” – Toshkent, Ma’naviyat, 2008yil.

2.M.Bo‘ronov. “O‘zbekistonda ma’naviy-marifiy siyosatning tadrijiy rivojlanishi”. Toshkent, Ma’naviyat, 2016-yil.

3. N.Hasanova O‘zbek milliy musiqa merosi taraqqiyotida xotin-qizlarning o‘rni. Aktualnыy vыzыvi sovremennoy nauki IX- xalqaro ilmiy konferensiya 26-27 yanvar 2017- yil.

4. Umumta’lim maktablarida musiqa ta’limi va tarbiyasi Konsepsiyasi. – Toshkent, XTV, 1995-yil.

5.Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Advanced Science and Technology
Vol. 29, No. 8, (2020) https://t.me/joinchat/ - Music teacher, https://infourok.ru - music lessons

6.Khasanova,Navbakhor (2020) “The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students. ”Mental Enlightemment Scientific-Methodological Journal.Vol.2020: Iss.2. Article 15.
:https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15

7. Hasanova Navbahor Hamraqulovna. (2020). Bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘zbek mumtoz musiqasida kasbiy malakasini oshirish muammolari. *Xalqaro ilg‘or fan va texnologiyalar jurnali* , *29* (08), 3489-34953495. Http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558 dan olingan

8.Kholmirzaev, O. (2021). YoUTH MATURITY AND MUSIC: YoUTH MATURITY AND
MUSIC.Journal of Preschool Educatison, 3 (3). retrieved fromhttps://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/2103